

“TURLI AJOYIB UL MAHLUQOT” KITOBINING MINIATYURA BEZAKLARI



Bexzod Xadjimetov

“Miniatyura va kitob grafikasi” kafedrasi professori, s.f.f.d.
(PhD)

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Email: bekhzod96@gmail.com

Noila Nabiyeva

“Miniatyura va kitob grafikasi” kafedrasi o’qituvchisi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Email: nabiyevanoila33@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-01>

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida O‘zbekiston hududida kitobot san’atining xolati haqida yozilgan bo‘lib, toshbosma kitoblar va ularga bosilgan miniatyura usulidagi litografiya suratlari haqida so‘z boradi. Kitoblarni xattot, naqqosh, tazxib va miniatyura rassom ustalar tomonidan qo‘lda bezatilishi keskin kamayib tashbosma san’ati kirib kelish jarayonlari keng yoritilgan. Litografiya san’atining qisqacha kelib chiqishi, ishlanish uslublari, afzallik va kamchilik xususiyatlari haqida bayon qilingan. O‘zbekistonda toshbosma usulini hayotga tadbiq etilishi, rivojlanish tarixi, jarayonlarida Is’hoxon Ibratning o‘rni alohida ko‘rsatilgan. Birinchi bo‘lib toshbosma usulida miniatyura suratlari bilan bezatilgan Sidqiy Xondayliqiy tomonidan ko‘chirilgan “Turli ajoyib ul mahluqot” nomli toshbosma kitobi va undagi ayrim suratlarni tahlil etish orqali O‘zbekiston xududida miniatyura bilan bezatilgan toshbosma kitoblari badiiy ahamiyati oolib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘lyozma, toshbosma, kitobat san’ati, miniatyura, litografiya, grafika, xattotlik, nasta’liq.

Аннотация: В статье рассматривается состояние книжного дела в Узбекистане в конце XIX — начале XX вв., рассматриваются литографированные книги и напечатанные на них миниатюрные литографические изображения. Широко освещен процесс внедрения искусства книгопечатания, резко сократившего число книг, оформленных вручную каллиграфами, граверами, типографами и художниками-миниатюристами. Даётся краткое описание истоков, методов работы, преимуществ и недостатков искусства литографии. Освещена роль Искхокхона Ибрата в истории, развитии и процессах внедрения литографии в Узбекистане. Художественное значение миниатюрных литографических книг в Узбекистане раскрывается посредством анализа литографической книги «Turli ajoyib ul mahluqot» (Разные чудесные создания), переписанной Сидкием Хандайлики, которая была первой, украшенной миниатюрными литографическими изображениями, и некоторых изображений в ней.

Ключевые слова: Рукопись, литография, книжное искусство, миниатюра, литография, графика, каллиграфия, настальник.

Abstract: The article examines the state of book publishing in Uzbekistan in the late 19th — early 20th centuries, examines lithographed books and miniature lithographic images printed on them. The process of introducing the art of book printing, which sharply reduced the number of books designed by hand by calligraphers, engravers, typographers and miniature artists, is widely covered. A brief description of the origins, methods of work, advantages and disadvantages of the art of lithography is given. The role of Iskhokhon Ibrat in the history, development and processes of introducing lithography in Uzbekistan is highlighted. The artistic significance of

miniature lithographic books in Uzbekistan is revealed through the analysis of the lithographic book "Various wonderful creatures" (Different wonderful creatures), rewritten by Sidkiy Khandaylik, which was the first to be decorated with miniature lithographic images, and some images in it.

Key words: Manuscript, lithography, book art, miniature, lithography, graphics, calligraphy, nastalik.

Markaziy Osiyoda kitobat san'ati XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriyular davrida (1370-1507) yuksak saviyaga ko'tarilgan. Shoxona bezatilgan kitoblar juda qimmat turgani sababli, ular mahalliy hukmdorlar tomonidan xorijiy o'lka hukmdorlariga qimmatbaho tuxfalar qatorida jo'natilgan . Barchamizga ma'lumki tarixda qo'lyozma asarlar buyuk shaxslar va hukmdorlar uchun buyurtmalar asosida noma ko'rinishida yozilgan va miniatyura usulidagi suratlar bilan bezatilgan. Bugungi kunga kelib ilmiy tadqiqotchilar tomonidan juda ko'p qo'lyozma va ulardag'i miniatyuralari badiiy texnikaviy tomondan o'rganib chiqilgan. Masalan Abulqosim firdavsiyning "Shoxnoma", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari va Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari bunga misol bo'lishi mumkin. Bundan tashqari Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy hamda Alisher Navoiylarning "Hamsa" asarlari va shu kabi ko'plab qo'lyozmalar ham musavvirlar ijodida katta ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunda ana shunday bebafo qo'lyozma asar kitoblari va muraqqa suratlari durdona asarlar sifatida dunyoning turli mintaqalaridagi mashxur muzeylearida, galereya, kutubxona, va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanib kelinmoqda. Shuningdek yurtimizdagi ilmiy tadqiqot markazlari hamda muzeylear fondlarida ham behisob nodir va noyob asarlar mavjud. Sharq miniatyura rangtasvir sohasida yangilik qilishdan avval Pugochenkova, Galerkina, H.Sulaymonov, Z.Sulaymonova, Z.Rahimova, A.Madraimov, Asal, Zilola kabi san'atshunos hamda sharqshunos, tarixchi va arxitektor olimlar tomonidan o'z soxasi doirasida ilmiy jihatdan o'rganib chiqilgan.

Yuqorida olimlar tomonidan sharq miniatyurasi va kitobat san'atiga oid usul va uslublari, maktablari va yetuk musavvirlarining ijodi o'rganilgan va hali ham o'rganishda davom etmoqdalar. Biroq hozirgacha XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'zbekistonda yozilgan toshbosma asarlar va ularning suratlari tarixiy ilmiy jihatdan o'rganilganicha yo'q. Toshbosma usulining yurtimizga kirib kelishi va amalda qo'llanishi hamda ularni miniatyura usulidagi litografiya suratlari bilan bezash haqida ma'lumotlar jamlanmasi mavjud emas. Biroq N.Xusanovning "Ashyoda ishslash" A.Baxromovning "Badiiy muharrirlik uslubiyati" va N.Sharipovlarning "Grafika ashyolarida ishslash" nomli o'quv qo'llanmalarida toshbosma usuli haqida sohaga oid zarur ma'lumotlar keltirib o'tilgan . Tariximizdagi muhim ahamiyatga molik asarlarni o'rganish tadqiq etish va kelajak avlodga yetkazish borasida gap ketganida O'zbekiston respublikasi prezidebtining 2017 yil 24 maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan yozma yodgorliklarimizni o'rganishning yangi bosqichi shakllantirilganini aytib o'tish lozimdir. Qarorda belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasining turli tashkilotlarida saqlanayotgan arab yozuvidagi qo'lyozma asarlar, toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlarning saqlanish va ta'mirlanish holatini monitoring qilish va ularning elektron bazasini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan ekanligi bilan ahamiyatlidir .

Toshbosma usuliga o'tishdan avvalgi tarixiy jarayonni kuzatadigan bo'lsak, eng avvalo qog'ozning mashina yordamida ishlab chiqarilishi va umuman qog'oz tarixi haqida eslash lozim. Chunki qog'oz materiali VIII asrdan boshlab asosiy yozuv ashyosiga aylangan. Biz bugungi kunda ijtimoiy hayotimizda foydalanib kelayotgan qog'oz kashf qilingunga qadar yozish uchun turli tuman ashyolardan foydalanilgan. Misol uchun qoya toshlari, metal buyumlari, jonivor suyaklari, sopol buyumlari, bambuk tayoqchalari, teri kabi ashyolaridan foydalanilgan. Har bir ashyolarni o'ziga yarasha kamchiliklari (o'yib, tirnab yozish, sinish, foydalanishdagi noqulayliklari, og'irligi, uzoq vaqt saqlanmasligi) va afzallikkari (tabiatda ko'p uchrashi, uzoq vaqt saqlanishi, yonmasligi) bo'lgan. Barchaga ma'lumki manbalarga ko'ra ilk bor 105-yilda xitoylik olim Say Lun tomonidan qog'oz kashf etildi. Ammo xitoyliklar qog'oz tayyorlashdagi sir asrorlarni uzoq vaqt sir saqlangan. Vanihoyat VI- VIII asrlarda O'rta Osiyo, Koreya, Yaponiya va boshqa qator

davlatlarda qog‘oz tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan edi. VIII asrga kelib Samarqand keyin Buxoroda qog‘oz tayyorlash ustaxonalari ko‘payib qog‘oz sifati yaxshilanishi Mavarounnahrda qo‘lyozma kitoblarining rivojiga katta ta’sir etdi . Kitoblar va kitob ko‘chiruvchilarining xizmati qimmatli edi. Tarixdan ma’lumki O‘rta Osiyaga Islom dinining kirib kelishi arab va yangi fors tilining kuchayishiga sabab bo‘lgan. Va bu davrgacha bo‘lgan turli xat yozuvlariga barham berildi. Tarixdan O‘zbekiston hududida joylashgan shahrlarda arab xatidagi ko‘p miqdorda yozma yodgorliklar yaratilgan. O‘rta asrlardagi O‘zbekistonning yorqin yozuv madaniyati asosan ilm-fanning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatgan olimlar, shoir va mutafakkirlarning ijodida, xttot va turli hunarmandlarning murakkab va sharafli mehnatlarida, o‘ziga xos tarzda taraqqiy etgan kitobat san’ati namunalarida o‘z aksini topgan . Bitta kitob dunyoga kelishi uchun bir qancha xunarmandlar xizmat qilgan: varroq yoki qog‘ozgarlar qog‘oz tayyorlaganlar, saxxoflar qo‘lyozmani sahifalaganlar, badiiy muqovasozlar muqova yaratganlar, afshongarlar bo‘yoq bergenlar, xattotlar matn ko‘chirganlar, rassomlar miniyatyuralar bilan bezaganlar, naqqoshlar kitob sahifalariga nafis naqshlar solganlar, muzahhiblar oltin hal bergenlar. Vaqt o‘tib zamon rivojlanishi bilan bir necha yuz yillik qo‘lda xat yozish an’anasiga qarshi kuchli raqobat texnikasi vujudga kelib, kitob bosish stanoklari o‘ylab topildi va ilk bor Xitoyda dastlabki tajribalar o‘tkazilgan. Ular yog‘och taxta va loy ashyolari bilan ilk bora ipak va qog‘oz satxlariga matn yoki tasvir tushirishni amaliyotda qo‘llab ko‘rganlar. Johannes Gensfleisch zur Laden zum Gutenberg[a] (taxminan 1393–1406 - 1468 yil 3 fevral) nemis ixtirochi va hunarmand, harakatlanuvchi bosma mashinasini ixtiro qilgan. Harakatlanuvchi tur Sharqiy Osiyoda allaqachon qo‘llanilgan bo‘lsa-da, Gutenbergning bosma mashinasini ixtirosi bosib chiqarish tezligini ancha tezlashtirdi. Keyinchalik bosmaxona butun dunyoga tarqaldi . Manbalarga tayanib Dunyoda birinchi bosmaxona Germaniyada (I.Guttenberg tomonidan 1445yilda tashkil etilgan), Istanbulda (dastlabki yevropacha bosmaxona 1494-yili ochilgan), bir asr o‘tib, Fath Alishoh (1797-1834) davrida, Eronning Tabriz shahrida (milliy toshbosma 1825-yilda ishga tushdi) Hindistonda (ilk toshbosma kitoblar 1556-yildan nashr etila boshlagan). Bundan tashqari Misrda matbaa ishi 1798-1801-yillarda boshlangan, Rossiyada ilk nashr Pyotr I (1682-1725) davrida yuz bergen. Markaziy Osiyoda kitob nashriga salbiy munosabat kuzatilgan bo‘lsada, inson tabiatidagi yangilikka intiluvchanlik sabab kishilarda kitob chop qilishga bo‘lgan qiziqish ortaverdi. Bir vaqtning o‘zida qo‘lyozma, bosma va toshbosma kitoblarining parallel rivojlanishi Turkistonda, xususan, Xorazmda kitobchilik taraqqiyotining asosiy xususiyatini belgilaydi. Harf terilmaydigan, poligrafik terminologiyasi bo‘yicha yassi chop etish (litografiya) – matnning oldidan qog‘oz varag‘iga bitilgan va tosh shaklga teskarisi tushirilgan aksdan nusxa ko‘chirish usuli qo‘llangan. U Markaziy Osiyo shaharlarida keng yoyilgan. Xiva xonligida chop qilishning aynan shu usuli tanlanishi va mustahkam o‘rin olishining asosiy sabablaridan bir shuki, kitob nashr qilish jarayonida xattot mehnatidan ajralmas tarkibiy qism sifatida foydalilanilgan. Lekin bu qo‘lyozma bobidagi ko‘p ming yillik an’analarni to‘xtatib qo‘ymagan. Aksincha, kitob fondini ko‘paytirishda xattotlar xizmatidan foydalilanilgan. Bu ko‘p asrlik qo‘lyozma kitoblar orasidan matn jihatidan to‘la, sifatlilarni qayta nusxa ko‘chirish uchun tanlab olishga yordam berardi. Xattotlarning mahorat va qobiliyatini to‘laroq ishga solish uchun yangi imkoniyatlar ochgan. Shu bois Xivada toshbosma qadim an’analarga qo‘shilib ketdi. Ma’lum bo‘lishicha Turkistonda birinchi bosma kitob 1868-yil Turkiston harbiy okrugi shtabi (Toshkent) bosmaxonasida chop qilingan .


Yuqoridagi ma’lumotlardan toshbosma usuliga o‘tish turkistonda g‘arb va boshqa davlatlarga nisbatan kech boshlanganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Buning qator obyektiv va subyektiv sabablari mavjud edi. Avvalo, bir necha yuz yillik davr mobaynida tanho hukmronlik qilgan nusxa ko‘chirish, ya’ni qo‘lyozma usuli va xattotlik san’ati hunarmandchiligining kuchli an’analarga asoslanganligi o‘sha davr jamiyatining texnologik yangiliklardan hadiksirashi, texnik tafakkur darjasи va ijtimoiy ong shakllari ham shunday omillardan hisoblanadi. Shuningdek din peshvolarining fan va texnikaga oid ilg‘or kashfiyotlarga keskin salbiy munosabati ham sabab bo‘lgan. Shunga qaramay insонning yangilik va kashfiyotlarga bo‘lgan qiziqishlari yuqori bo‘lganligi sabab bu jarayon tezlashib ketdi .

Kitoblar qulay va arzon narxlarda turli mavzularda nashrdan chiqqan boshladi. Shu sababli xalqning turli tabaqa vakillari ham ilm olish masalasida bu imkoniyatdan bebahra qolmadidi. Turkiyani istisno qilganda, turkiy xalqlar orasida tatarlar elida XIX asrda butun umrini matbaachilik va kitob savdosiga bag‘ishlagan odamlar ko‘p bo‘lgan. Markaziy Osiyoda bunday odamlar XIX asrning ikkinchi yarmida, ya’ni matbaachilik paydo bo‘lgandan keyin faoliyat yurita boshlagan. Anashunday ilm tarqatish xalqga haqni tanitish yo‘lida beminnat xizmat qilgan shaxslardan biri “Jadidlar harakati” namoyondasi Is’hoqxon Ibratning xizmati beqiyosdir. Is’hoqxon Ibrat Turkistonda birinchi bosmaxona tashkil etilishida yetakchilik qilgan. Shu asnoda qo‘lyozma asarlar o‘rnini toshbosma usuli butkul egalladi. Va o‘z navbatida toshbosma kitoblarni bezashga ehtiyoj sezila boshladi va litografiya usulida oq-qora rangda toshbosma kitoblarga suratlar bosila boshladi. Bugungi kunda yurtimizning Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti, Alisher Navoiy Nomidagi Til va Adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, hamda Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyi fondlarida miniatyura suratlari bilan bezatilgan noyob toshbosma kitoblari saqlanmoqda. Fondlarda toshbosma kitoblarning katalogi tayyorlanib ularning elektron ba’zasi ham shakllantirilgan.

O‘zbekistonda bosilib chiqarilgan ilk toshbosma asarlaridan biri, “Ajoyib ul mahluqot” nomli kitob bo‘lib Sirojiddin Mahdun Siddiqiy ibn Mirzo Oxund Xondaliqiy tomonidan 1917-yilda ko‘chirilgan. Ammo ushbu asarning haqiqiy muallifi Zakariya al-Qazviniy bo‘lib, Mirzo Oxund Xondayliqiy bu asarni forsiydan turkiy tiliga tarjima qilgan va suratlar bilan bezatib, nashr qilgan.

Abu Yahyo Zakariyya ibn Muhammad ibn Maxmud al-Qazviniy, (tahminan 1203-yil, Qazvin, Eron – 1283-yil) – Qazviniy (forscha: قزوینی) nomi bilan ham tanilgan fors kosmografi va geograf olimlaridan biridir. Uning ushbu asari kosmografiyada muhim asar bo‘lgan „Ajā’ib al-maxluqāt va-gharā’ib al-mavjūdāt“ („Yaratilish mo‘jizalari va borliqning noyob hodisalar“)dir . Bugungi kunda ushbu asarning Sirojiddin Hondayliqiy tomonidan toshbosma usulida ko‘chirilgan nusxasi Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyida ekspozitsiya fondini boyitishga xizmat qilmoqda va tadqiqotlar uchun ochiq.

Siddiqiy Xondayliqiy (taxallusi; asl ism-sharifi Sirojiddin Maxdum Mirzohidoxund o‘g‘li;) 1884-yil – hozirgi Bo‘stonliq tumani Xondayliq qishlog‘ida tug‘ilgan. Siddiqiy Xondayliqiy shoir va yozuvchi bundan tashqari xattotlik va tarjimonlik bilan ham shug‘ullangan. Arab, fors, tillarini o‘rgangan va shu tillardagi kitoblarni tarjima qilgan. Xattotlikka qiziqqan, zamonasining mashhur qilqalami Muhammad Shohmurod kotib (1850—1922)ga shogird tushgan. Sirojiddin tosh yo‘nib, unga ishlov berish, turli bezaklar tushirish, suratlar ishslash, muhr yasash bilan ham shug‘ullangan. „Hikoyai latifa“, „Bahrom va malikai Gulandom“, „Ajoyib ul-maxluqot“, „O‘g‘ri va qozi“, „Bo‘ston“ (Sa’diy) kabi asarlarni tarjima qilgan. Sirojiddin Xondayliqiy ko‘chirgan devon, bayoz va risolalar, yasagan muhrlari nusxalari, toshlavhalar hamda chizgan To‘ychi Hofiz va Tavollo suratlari xususiy va davlat kutubxonalarida, shuningdek, 20 dan ortiq bosma va qo‘lyozma asarları O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi (R7629), 7631, R—7629—III).




Ushbu kitob 1917 yilda yozilgan bo‘lib kitob turli xildagi jonivorlar haqida yozilgan. Kitobning muqovasi ko‘krangli karton muqova hisoblanadi. Asar to‘liq 200 betdan iborat 25x18 o‘lchamga ega. Kitobning tituli qizil rangli qog‘ozga to‘rtburchak hoshiya naqsh va o‘rtasida oval aylana ichiga eski o‘zbek yozuvining nasta’liq xat turida asarning nomi yozilgan. Kitob varaqlari mumtoz kitobat san’ati uslubida tayyorlanagn. Bunday deyishimizga sabab shuki, mumtoz san’atimizda qog‘ozlarga turli ranglar berib qo‘lyozmalar yozilganligi haqida ma’lumotlar yetarli. Yozuvchining iste’dodli shaxs ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak. Asarda tar’ifi keltirilgan va surati chizilgan mavjudotlarning rasmini ham Sirojiddin Xondayliqiyning o‘zi tasvirlagan. Kitobning ellik foizi qismani suratlар tashkil etadi. Suratlari miniyatURA uslubida chizilgan va litografiya usulida bosilgan. Litografiya usulida surat bosish mexanikasi toshbosma Aloysius Zenefelder tomonidan 1796-1800 yillarda Myunxendagi so‘ng Venada va yana 1806-yilda Myunxendagi faoliyati davomida o‘ylab topilganligi barchaga ma’lum hisoblanadi. Hikoyalardan biriga ko‘ra, Zenefelder beparvolik bilan ohaktosh toshiga kir yuvish uchun to‘lovni yozgan va u tasodifan nam mato ustiga bosilgan. Aloysius Zenefelder toshdan tasvir olishni mumkinligini birinchi bo‘lib tushundi. Bu hikoya xayoliy bo‘lsa ham, unda haqiqat donasi mavjud edi. Oradan yillar o‘tib, ixtirochi "toshga bosishga oid aniq qo‘llanma" (Vollstningndiges Lexrbuch der Steindruckerey, 1818) asarini nashr etib, 1819-yilda qisman rus tiliga tarjima qilgan. Bu haqida N.Xusanov, A.Baxromov va N.Sharipovlarning o‘quv qo‘llanmalarida ma’lumotlar keltirilgan. Litografiya usulining kelib chiqish tarixi mana shunday hodisalardan iborat bo‘lib, qo‘limizdagi “Turli ajoyib ul-mahluqot” asaridagi suratlar ham huddi shu usul yordamida bosilgan. “Turli ajoyib ul-mahluqot” kitobidagi ayrim suratlar va ular haqidagi ma’lumotlar Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn isntituti o‘qituvchisi xattot Avazbek Qodirov yordamida o‘qib tarjima qilinganini aytish joiz deb bildik. Shuningdek suratlar Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniyatURA san’ati direktori hamda muzey fond rahbarlarining roziliqi bilan maqolaga joylandi. Kitobning tanlangan betlaridan birida surati keltirilgan qush haqida ham ajoyib ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Saqar-forszabonida charx derlar bizlara o‘talgu dermiz. Bu qushning ovi hamma qushning ovidan ajibroq bo‘lur. Agar uni bug‘u yo oxug‘a solsalar boshig‘a qo‘nib ikki qanoti birla ikki ko‘ziga urib to‘xtatadir toki egasi kelib ushlab olur. Shu sahfada tasviri chizilgan yana bir qush bor.

Toyrulbaxr-daryo qushi erur. Hamisha daryoda parvoz qiladir. Quruqliqda yursa bo‘lmaydir. Daryo ahli derlarki bu qush yerga tushmaydir magar tuxum qo‘yar mahalda tushadir.

Yuvosi daryo ko‘pigidin bo‘lur. Mundan boshqa vaqtida doimo parvozda bo‘lur. Toki o ‘lur tuxumi, o‘zicha yorulur bolalari ham ota-onalari kabi bo‘lurlar.




Tovus xusni-jamol bobida hamma qushlarning zebosi erur. Xudo taolo bu qushning yaratmoqida ajoyib hikmatning namoyon qilibdir. Ani har bir parining to‘garagida ko‘k va yashil va andin boshqa rang birla qorishgan. Oltin bordirki hammasi nazokat va latofatda o‘zig‘a yarashgandir va xusnig‘a ravnaq bergandir. Agar olunni qizil yo sarig‘, yo oq, yo ko‘k, yo yashil narsa uzra qo‘shtalar qazoq zeb ko‘rinur. Ibrat egasi sone haqiqiy soniyning ko‘rgilki bir dona tuxumdin bu kabi naqshhoy ajpyib va ranghoy nuqtalig ‘a yaratibdir. Derlarki tovusning umri bir yigirma yilga yetadir va bunda yana ranggi ziyoda bo‘ladir. Abu Ali ibn Sino debdurki har kim barcha narsa dushmon bo‘lmasin deyilsa kerakki tovus asrasin.

Keyingi suratdagi qush haqida shunday yozilgan.

Yethu-bir nashxur qushdir. Har kim aning go‘shtiningyesa semiradir va quvvatboh bo‘lur. Yana bir qushning ta’rifi shunday keltirilgan.

Shamshirdunba-bir hiyonatkor qushdirki nafis narsalarini o‘g‘irlab yafroqlar ostiga yashirur. Kitobning har bir varaqlarida turli xildagi mavjudodlarning, hattoki xayoliy to‘qima jonzotlar haqida ham fikrlar bitilganligiga guvohi bo‘lishimiz mumkin bo‘ladi. Sahifalarda keltirilgan ba’zi daraxtlarning nomlari va ularning shakl-shamoyillariyu vatani hamda inson salomatligi uchun foydalari xususida ham bemisil ma’lumotlar ketirilgan ekan. Masalan.



qisman ochib berildi.

Bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar orqali Siddiqiy Xondayliqiyning o‘rganilishga muhtoj bo‘lgan ko‘plab asarlari orasidan “Turli ajoyib-ul mahluqot” nomli toshbosma kitobini badiiy jihatdan qisman o‘rganib chiqildi. Kitobning matnlari arab alifbosidagi turkiy yozuvida nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, undagi suratlarning deyarli barchasini mumtoz miniatyura suratlarida ham ko‘p bora kuzatganimiz. Suratlarni o‘rganish davomida tasviriy san’at sohasining miniatyura va boshqa yo‘nalishlarida ijodiy asarlar yaratishda muhim ajoyib manbaani o‘rganishga qadam qo‘yildi. Ushbu asar ijodkorning tasavvur doirasini kengaytirishga yordam berishi, ijodiy potentsialini ochishda katta ahamiyatga ega. Kitobda quruqlik va suvda, dasht-u cho‘llarda hamda osmonlarda pavoz qiluvchi jonivorlar shuningdek hayoliy fantastic jonzotlar haqida ham batafsil ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari dunyoning turli hududlarida o‘sadigan o‘simliklar, gullar, daraxtlar va ularning inson salomatligi uchun foyda va zararlari haqida Abu Ali Sino tomonidan asoslangan tajriblari to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar suratlari bilan birgalikda keltirilgan. Ushbu kitob o‘z davrining kitobxonlari uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lganligi shubxasiz. Bugungi kunga kelib shu kabi noyob asarlarni o‘rganish va ularni kelgusi yosh avlodlarga yetkazish tarixchi, sharqshunos, va san’atshunos olimlar oldidagi yangi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.Xondayliqiy. “Turli ajoyib ul-mahluqot” Toshkent.1917 yil.
2. B.Xadjimetov Ashyolarda ishslash. Toshkent Info capital group. 2018.
3. O‘zbekiston madaniy merosi. Rossiya fanlar akademiyasi sharq qo‘lyozmalari to‘plami. “Silk road media”.”East road media” Toshkent 2020.

Ud-bir katta daraxt erurki hind daryosining jaziralarida bo‘lur. Ildizlarining olib yerg‘a ko‘murlar toki po‘sti cho‘rib xolis ud qolur. Abu Ali ibn Sino debdurki ani chaynamoq og‘izni hushbo‘y dimog‘ni choq qiladir. Uni sharbati dardnok bodni yo‘q qilur. Tasviri budur.

Udsalib-uni ba’zisi rumiyva ba’zisi hindiy bo‘lur. Abu ali inb Sino debdurki uni cho‘pi badandagi dog‘ni zoil qilur va bosh og‘rig‘iga nafe qilur. Toki taqib yursa ham bosh og‘ri‘ini daf qilur. Tasviri budur .

Qo‘limizdagagi ushbu behad qimmatli kitob olamdagagi ajoyib eqiyofalari, tasvirlari va ularning ta’rifu-tasniflariga limmo-lim ekanligi bilan o‘ziga xosdir. Kitobdagi suratlar o‘z davri yangilik mexanikasi bo‘lmish toshbosma stanoki bilan litografiya usulida oq va qora ranglar orqali bosib tushirilgan.

Ushbu toshbosma kitobini matnlari va suratlarini tahlil qilgan holda shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bugungi kunga qadar O‘zbekistonda bu kabi litografiya uslubida ishlangan miniatyura uslubidagi suratlar bilan bezatilgan kitoblar badiiy-ilmiy jihatdan o‘rganilmagan. Umuman ilmiy adabiyot va nashrlarda toshbosma usuli hamda litografiya san’atini Turkistonga kirib kelishi va o‘sha davr milliy muhitiga ta’sirlari to‘liq yoritilmagan. Ushbu tahlil va tadqiqotimiz doirasida bu mavzuni

4. "Bosmaxona" O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. Махмудова Р. Литографированные произведения и их значение в истории узбекской литературы (конец XIX – начало XX.). – Т.: 1971
6. Ibn Bakkār, Al-Zubayr, al-‘Ānī, Sāmī Makkī (ed.), Al-Akhbār al-muwaffaqīyāt (2nd ed.). « Dār ‘Ālam al-Kutub » [1996] — 14-18-bet.
7. Sidqiy Xondayliqiy" O'zME. S-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
8. N.Husanov. Ashyoda ishlash. Toshkent 2024.
9. N.Sharipov Grafika ashylarida ishlash Toshkent 2023.
10. “Bosmaxona” O'zME. Birinchi jild.Toshkent 2000 yil.
11. Рустамов М.И. История книг и книжного дела в Средней Азии (вторая половина XIX – первая четверть XX в.в. Автореферат. дисс. – Т.,1968.
12. Ibn Bakkār, Al-Zubayr, al-‘Ānī, Sāmī Makkī (ed.), Al-Akhbār al-muwaffaqīyāt (2nd ed.). « Dār ‘Ālam al-Kutub » [1996] — 14-18-bet